

## PATRONAJ HAMSHIRASINING VAZIFALARI

2-son Farg'ona Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi  
Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi  
**Muqimova Hamidaxon**

Patronaj hamshirasi - bu sizning uyingizga kelgan va yangi tug'ilgan chaqaloqqa g'amxo'rlik qilishda yordam ko'rsatadigan malakali tibbiyot mutaxassisi.



Patronaj hamshirasi nafaqat bemorlarning ahvolini, balki yashash sharoitlarini ham kuzatib boradi. Shuningdek, uning vazifalariga davolovchi shifokorga bemorning sog'lig'i o'zgarganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish, barcha kerakli dori-darmonlarning mavjudligini va qabul qilinishini nazorat qilish, bemorga psixologik yordam ko'rsatish va qarindoshlariga unga g'amxo'rlik qilishning zarur tartiblarini o'rgatish kiradi.

- Patronaj hamshirasi jamoada kasalliklarni oldini olish, o'z vaqtida erta aniqlash va parvarish ishlarini olib boradi. Aholiga mavsumiy kasalliklar haqida malumotlar beradi.
- har yarim yilda 1-marta 063, 064-shakllarini ko'rib, tekshirib chiqadi;
- har oyda chaqaloqlarni o'z vaqtida rejalashtirish va profilaktik emlash kalendari bo'yicha emlashini ta'minlash maqsadida ularni hisobga oladi va patronajini yuritadi;

- kartateka hamshirasi bilan joriy yilda va har oyda emlanishi lozim bo‘lgan aholi ro‘yxatini tuzadi;
- oylik emlash rejasiga muvofiq, bolalarni ota-onalari bilan emlatki olishi uchun chaqiradi;
- emlashdan so‘ng reaksiyalar va asoratlarni aniqlash maqsadida uyiga patronajga boradi;
- dispanser hisobida turadigan va tibbiy cheklovi bo‘lgan bolalarni vrach ko‘rigiga chaqiradi;
- har oyda boshqa tumanlarda maktablarga, bolalar muassasalariga qatnaydigan bolalarni emlanish holatini aniqlaydi va rasmiy hujjatlarni yozib boradi; har oyda qilingan emlashlar to‘g‘risida hisobot tuzadi va taqdim etadi.



Hozirgi kunda tashrif buyuradigan hamshira tobora ko'proq o'sha mutaxassisga aylanmoqda, uning yordamisiz bemorlarga har tomonlama parvarish qilish, barcha kerakli muolajalarni bajarish va tiklanish davrini ta'minlash imkonsiz. Patronaj turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ixtisosiga qarab, malakali va tajribali mutaxassis nafaqat o'z bo'limiga yordam beradi, balki qarindoshlarini ham axloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, bemorni

**Patronaj qamrovining to'liq va o'z vaqtida ko'rsatilishini ta'minlaydi. Bunda aholisni ro'yxatga olish jurnali, biriktirilgan aholi registri kabilardan foydalaniladi.**

**Ikki xil ko‘rinishda reja tuziladi:** universal tashrif (oylik reja, haftalik ishlar nazorati) va progressiv tashrif kengaytirilgan xizmatlar (kunlik reja). Bemor bolalar, tug‘ruqxonadan uyga ruxsat berilgan yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va emlashni rad etgan bolalar uchun kunlik reja qayta ko‘rib chiqiladi. Patronaj hamshiraning rejalarini katta hamshira nazorat qiladi. U patronaj hamshiralarga yangi ma’lumot olinganda progressiv patronaj rejasini tuzishda yordam beradi.

**Izoh:** universal patronaj xizmati to‘g‘ri tashkil etilganda bir kunda 6 ta xonadon patronajini amalga oshirishga hojat qolmaydi (favqulodda holatlardan tashqari), chunki patronaj hamshirasi xavfni baholash, ota-onalarni o‘qitish va hokozalar bo‘yicha chuqur tizimli ishlarni olib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamoada hamshiralik ishi . Q.S Inomov
2. Internet saydlari:
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
4. <https://fayllar.org/>
5. <https://daryo.uz/>